Biroq xalqaro manbalarda keltirilgan natijalar, asosan, moʻtadil iqlim yoki tropik zonalarga xos boʻlib, Oʻzbekistonning keskin kontinental va arid iqlim sharoitida agrivoltaikaning oʻziga xos ekofiziologik ta'siri, xususan yuqori darajadagi insolatsiya sharoitida fotosintetik faol radiatsiyaning taqsimlanishi boʻyicha fundamental tadqiqotlar hali toʻliq shakllanmagan, deb hisoblanadi.

Mahalliy ilmiy maktablar doirasida T. Majidov, G. Bekmirzaev va N. Ikramov kabi olimlar tomonidan qishloq xoʻjaligida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qoʻllash, xususan, mobil fotoelektr qurilmalarni sugʻorish tizimlariga integratsiya qilish boʻyicha muhim ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, B. Abdurakhmanov va O. Ochildievlarning tadqiqotlarida quyosh elektr stansiyalarining tuproq haroratini pasaytirishi hamda evapotranspiratsiyani kamaytirishi haqidagi natijalar agrivoltaikaning agroekologik foydalarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Sh.E. Begmatov tomonidan taklif etilgan konseptual yondashuvlar esa mazkur sohaning terminologik bazasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning fikricha, mahalliy olimlarning ishlari asosan alohida texnik yechimlar yoki ekologik prognozlar bilan cheklanib, energetik va agronomik koʻrsatkichlarning oʻzaro bogʻliqligini (integral samaradorlikni) kompleks baholashga qaratilgan yagona monitoring metodologiyasi hamda standartlashtirilgan indikatorlar tizimi yetarli darajada shakllanmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada kuchaytiradi [16; 17] (1-jadval).

1-jadval
Oʻzbekiston kontekstida agrivoltaika uchun ilmiy zamin yaratadigan asosiy ishlar

| Tadqiqot obyekti | Xorijiy olimlar (K. Mehta, M.J. Shah va b.) | Mahalliy olimlar (T. Majidov, B. Abdurakhmanov va b.) | Muallif munosabati |
|---|---|---|---|
| **Asosiy fokus** | Suv–energiya–oziq-ovqat zanjirining global barqarorligi | Mobil tizimlar va ularning tuproq mikroiqlimiga ta'siri | Mahalliy tadqiqotlar amaliy muhandislikka yoʻnaltirilgan boʻlib, global metodologik baza bilan integratsiyani talab etadi |
| **Asosiy natija** | Agrivoltaikaning rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyati asoslab berilgan | Tuproq haroratining pasayishi (5,1–9,75 °C) va namlikning ortishi (2,0–3,5 %) aniqlangan | Mahalliy iqlimiy natijalar agrivoltaika uchun mustahkam ilmiy asos (gipoteza) vazifasini bajaradi |
| **Metodologiya** | Ijtimoiy-iqtisodiy va makroekologik tahlil | Dala tajribalari va matematik modellashtirish | Har ikki yondashuvni uygʻunlashtiruvchi integral indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarur |

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda agrivoltaika hali alohida keng koʻlamli ilmiy maktab sifatida toʻliq shakllanmagan boʻlsa-da, uning asosiy komponentlari – fotoelektr energiya, suv tejamkor sugʻorish, agroekologik monitoring hamda mahalliy muhandislik yechimlari – boʻyicha yetarli darajada boshlangʻich kompetensiyalar mavjud. Bu holat keyingi bosqichda agrivoltaika yoʻnalishida mintaqaviy tajriba stansiyalarini tashkil etish va standartlashtirilgan monitoring protokollarini ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy poydevor vazifasini bajaradi [20].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola ochiq manbalarga tayangan holda tayyorlandi. Axborot bazasiga quyidagilar kiritildi: i) Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari, farmonlari va hukumat qarorlari; ii) Prezident administratsiyasi, davlat va sohaviy idoralar, xalqaro moliyaviy institutlar hamda investor kompaniyalar tomonidan eʼlon qilingan materiallar; iii) mahalliy va xalqaro ilmiy maqolalar; iv) agrivoltaika hamda qayta tiklanuvchi energiyaning qishloq xoʻjaligiga integratsiyasi boʻyicha ikkilamchi sharh manbalari.

Tahlilda uch bosqichli yondashuv qoʻllanildi. Birinchi bosqich – kontent-tahlil boʻlib, unda hujjatlar va eʼlonlarning mazmuni ichki mantiqiy izchilligi, huquqiy kuchi hamda faktlar zichligi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Ikkinchi bosqich – qiyosiy loyihaviy tahlil boʻlib, unda pilot va namoyish loyihalari quvvat, maydon, maqsadli ekinlar, joriy etilish holati, eʼlon qilingan natijalar hamda maʼlumotlarning ochiqlik darajasi boʻyicha yagona jadval asosida taqqoslandi. Uchinchi bosqich – evidence-grading (dalillarni baholash usuli) yondashuvi boʻlib, unda har bir koʻrsatkich “sonli tasdiqlangan”, “faqat sifat jihatdan eʼlon qilingan” va “eʼlon qilinmagan” toifalarga ajratildi.

Maqolada loyiha muvaffaqiyati quyidagi toʻrt oʻlchamda baholandi: (1) texnik validatsiya – loyiha ishga tushirilganligi, quvvati va ishlab chiqarish koʻrsatkichlari; (2) agronomik validatsiya – hosildorlik, suv sarfi, tuproq va mikroiqlim oʻzgarishlari; (3) ekologik natijadorlik – $CO_2$ emissiyasining kamayishi, bugʻlanish va issiqlik rejimidagi oʻzgarishlar; (4) institutsional yetuklik – meʼyoriy-huquqiy asoslarning mavjudligi, jamoatchilik eshituvlari, ilmiy hamkorlik va monitoring protokollarining shakllanganligi.

TAHLIL VA NATIJALAR

### 3.2. Institutsional harakat va loyiha maydonlarining shakllanishi

Davlat darajasidagi qiziqish 2024-yil boshida aniq namoyon boʻldi: rasmiy axborotlarda Oʻzbekistonda 10 GW agroelektrik salohiyat mavjudligi hamda qishloq xoʻjaligi yerlarida oltita tumanda pilot loyihalarni boshlash vazifasi qayd etildi [6; 8]. Mazkur jarayon agrivoltaikaning energetika siyosatidagi mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Shu davrdan boshlab kichik pilot tizimlar, ilmiy-tadqiqot institutlari bazasida tashkil etilgan namoyish loyihalari hamda yirik investorlik quyosh elektr stansiyalarida agrivoltaika elementlarini integratsiya qilishga qaratilgan tashabbuslar parallel ravishda shakllana boshladi (1-rasm).




**1-rasm. Oʻzbekistonda agrivoltaika rivojlanishining asosiy bosqichlari (2024–2026) [7–14] asosida muallif tomonidan tuzildi.**

### 4. Pilot loyihalar va ularning qiyosiy bahosi (tahrirlangan)

Ochiq manbalar tahlili Oʻzbekistonda kamida toʻrtta muhim yoʻnalishni ajratish imkonini beradi: (1) kichik quvvatli dalaviy pilot tizim; (2) ilmiy institut bazasidagi namoyish loyihasi; (3) grant asosida ishga tushirilgan tajriba stansiyasi; (4) yirik tijorat quyosh loyihalariga agrivoltaika elementlarini integratsiya qilish modeli. Mazkur formatlar turlicha boʻlsa-da, ularning barchasi agrivoltaikaning mahalliy sharoitlarga moslashuvchanligini baholashga xizmat qilmoqda (2-jadval).

2-jadval
O'zbekistondagi asosiy agrivoltaika tashabbuslarining taqqoslama tavsifi

| Loyiha | Hudud | Quvvat | Maydon | Asosiy maqsad/ekin | Holati | Ochiq e'lon qilingan natija |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Guliston agro-FV pilot [12]** | Sirdaryo viloyati, Guliston | 50 kW | Aniq maydon e'lon qilinmagan | Malina ustida shaffof bifacial panellar; 70 % soyalanish | Ishga tushirilgan | Texnik ishga tushirish, lokal tayanch konstruksiya, bug'lanishni kamaytirish va salqin mikroiqlimni shakllantirish bo'yicha sifat tavsifi mavjud |
| **Kuksaroy namoyish loyihasi [11; 13]** | Toshkent viloyati, Kuksaroy | 507,78 kW | 1,5 ga | Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI bazasi | Jamoatchilik eshituvi / amalga oshirish bosqichi | 819 panel/ga, suvni tejash, tuproq unumdorligini saqlash, hosildorlikni oshirish va 25 ta ish o'rni yaratilishi kutilayotgani e'lon qilingan |
| **Tajriba stansiyasi loyihasi [14]** | Toshkent viloyati, tajriba stansiyasi | 800 kW | 1 ga | Sabzavot, poliz va kartoshka bo'yicha ilmiy sinovlar | Ishga tushirilgan / tadqiqot platformasi | AQSh grant mablag'i – 1 mln dollar; Markaziy Osiyodagi ilk loyiha sifatida taqdim etilgan |
| **Xorazm/ Sarimay integratsiyasi [9; 10]** | Xorazm viloyati, Tuproqqal'a / Sarimay | 100 MWac / 126 MWp | 177–180 ga | Yirik quyosh elektr stansiyasi tarkibida ekin yetishtirish elementi | Qurilish / dastlabki MWh yetkazib berish bosqichi | 240–254 mln kWh/yil, 60–85 ming xonadon ekvivalenti, CO□ emissiyasining kamayishi va gaz tejalishi bo'yicha muhim energetik natijalar qayd etilgan |

**Izoh:** Xorazm/Sarimay loyihasi quvvati ayrim manbalarda 100 MW (odatda AC), boshqa manbalarda esa 126 MW (odatda DC/nominal) ko'rinishida keltiriladi; maqolada har ikki ko'rsatkich birgalikda berildi.




**2-rasm. O'zbekistondagi maxsus agro-FV pilot va namoyish loyihalarining quvvati [11–14] asosida muallif tomonidan tuzildi.**

**4.1. Guliston 50 kW pilot tizimi: texnik demonstratsiya va ma’lumotlar cheklanganligi (tahrirlangan)**

Gulistondagi 50 kW agro-FV tizimi O‘zbekistonda dalada amalda ishlayotgan eng e’tiborga molik kichik pilot loyihalardan biridir. Ochiq ma’lumotlarga ko‘ra, unda shaffof bifacial panellar qo‘llanilgan bo‘lib, tizim taxminan 70 % soyalanish hosil qiladi hamda malina ekini ustiga o‘rnatilgan [12]. Mahalliy ishlab chiqilgan tayanch konstruksiyalardan foydalanilgani mazkur loyihaning importga to‘liq bog‘liq bo‘lmagan lokal muhandislik yo‘nalishini ham namoyon etadi. Shuningdek, konstruksiyaning 25 m/s gacha shamol tezligi va 1,5 kN/m$^2$ gacha qor yuklamasiga mosligi haqidagi ma’lumotlar uning konstruktiv ishonchliligini tasdiqlaydi [12].

Biroq ushbu loyiha bo‘yicha agronomik va energetik monitoring natijalarining to‘liq ochiqlanmaganligi kuzatiladi. Xususan, yiliga ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi, sug‘orish suvi tejalishi, malina hosildorligi va sifat ko‘rsatkichlari, tuproq namligi hamda panel osti hududining real mikroiqlimi bo‘yicha sonli natijalar keng jamoatchilik uchun yetarli darajada taqdim etilmagan. Shu bois Guliston pilot loyihasi texnologiyaning amaliy ishlash imkoniyatini tasdiqlasa-da, agronomik samaradorlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha kengroq empirik dalillarni shakllantirish zarurati saqlanib qolmoqda.

**4.2. Kuksaroydagi 507,78 kW namoyish loyihasi: ilmiy institut bazasidagi ko‘p mezonli sinov maydoni (tahrirlangan)**

Toshkent viloyatining Kuksaroy hududida, Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti bazasida 507,78 kW quvvatli agro-fotoelektrik stansiya loyihasi bo‘yicha jamoatchilik eshituvi o‘tkazilgani ma’lum qilingan. Loyiha 1,5 gektar maydonda joylashishi hamda bir gektarga 819 ta panel to‘g‘ri kelishi e’lon qilingan [13]. Mazkur loyiha agrivoltaikaning ilmiy kuzatuvlar va dala tajribalari uchun eng maqbul formatlaridan biri hisoblanadi, chunki institut bazasi nazorat uchastkalari, turli ekin turlari va tizimli o‘lchovlarni tashkil etish imkonini beradi.

Ochiq axborotlarda loyiha doirasida suvni tejash, tuproq unumdorligini saqlash, hosildorlikni oshirish, qo‘shimcha daromad manbaini shakllantirish hamda 25 ta ish o‘rni yaratish kabi kutilayotgan natijalar qayd etilgan [13]. Shu sababli mazkur tashabbus nafaqat energetik, balki ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq maqola tayyorlangan davrda loyiha bo‘yicha amaliy natijalar, xususan hosildorlik, suv sarfi, yillik elektr energiyasi ishlab chiqarish (kWh), panel osti va nazorat maydonlari o‘rtasidagi farqlar bo‘yicha yakuniy dalalar natijalari hali keng jamoatchilikka to‘liq taqdim etilmagan. Demak, loyiha ilmiy jihatdan yuqori salohiyatga ega bo‘lib, uning to‘liq validatsiya bosqichi davom etmoqda (3-rasm).



**3-rasm. Kuksaroydagi agro-FV namoyish loyihasi bo‘yicha jamoatchilik eshituvi** [13].

**4.3. Toshkent viloyatidagi 800 kW tajriba stansiyasi: mintaqaviy ilmiy platforma (tahrirlangan)**

2026-yil boshida Toshkent viloyatidagi tajriba stansiyasida 800 kW quvvatli agrivoltaika loyihasi ishga tushirilgani, uning 1 gektar maydonda joylashgani hamda sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka yetishtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga xizmat qilishi ma’lum qilindi [14]. Loyiha AQShning 1 mln AQSh dollari miqdoridagi granti asosida amalga oshirilgan bo‘lib, Markaziy Osiyodagi ilk agrivoltaika loyihalaridan biri sifatida taqdim etildi [14].

Mazkur loyiha O‘zbekiston uchun muhim institutsional bosqichni ifodalaydi. Chunki ushbu holatda agrivoltaika oddiy investorlik obyekti sifatida emas, balki ilmiy ma’lumotlar ishlab chiqaruvchi tadqiqot platformasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Agar mazkur maydonda panel osti va nazorat uchastkalari bo‘yicha hosildorlik, quruq massa, suv sarfi, fotosintetik faol radiatsiya (PAR), tuproq namligi, havo va tuproq harorati, elektr energiyasi ishlab

chiqarish hajmi, panel harorati, xizmat koʻrsatish xarajatlari hamda iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari tizimli ravishda kuzatib borilsa, bu Oʻzbekiston sharoitiga mos milliy standartlar va metodikalarni ishlab chiqish uchun muhim eksperimental baza boʻlib xizmat qilishi mumkin (4-rasm).

**4-rasm. Toshkent viloyatidagi 800 kW agrivoltaika tajriba loyihasining ishga tushirilishi** [14].




**4.4. Xorazm/Sarimay loyihasi: yirik quyosh energetikasi bilan agrivoltaika integratsiyasi (tahrirlangan)**

Xorazm viloyatidagi yirik quyosh energetikasi loyihalari agrivoltaikaning muqobil – integratsiyalashgan – modelini ifodalaydi. Rasmiy axborotlarda Tuproqqal’a tumanidagi loyiha doirasida Oʻzbekistonda ilk bor quyosh panellari ostida ekin yetishtirish tajribasidan foydalanish rejalashtirilgani alohida ta’kidlangan [9].

Keyingi ma’lumotlarga koʻra, mazkur loyiha 100 MW toifasiga mansub boʻlib, yiliga 240–254 mln kWh elektr energiyasi ishlab chiqarishi, oʻn minglab xonadonlarni elektr energiyasi bilan ta’minlashga ekvivalent boʻlishi, $CO_2$ emissiyasini sezilarli darajada kamaytirishi hamda tabiiy gaz tejalishini ta’minlashi qayd etilgan [9; 10]. 2025-yil noyabrda esa Sarimay loyihasi doirasida birinchi MWh elektr energiyasi yetkazib berilgani e’lon qilingan [10].

Mazkur loyihada energiya komponenti yuqori darajada hujjatlashtirilgan boʻlsa-da, agrivoltaika elementlariga oid ma’lumotlar nisbatan cheklangan holda taqdim etilgan. Xususan, panellar ostida yetishtirilgan ekin turlari, hosildorlik koʻrsatkichlari hamda suv rejimidagi oʻzgarishlar boʻyicha batafsil natijalar keng jamoatchilikka yetarli darajada ochiqlanmagan.

Shu bois Xorazm/Sarimay loyihasi energetik samaradorlik nuqtai nazaridan yuqori darajadagi ishonchlilikni namoyon etsa-da, agrivoltaika komponenti boʻyicha maxsus monitoring natijalarini kengroq shakllantirish zarurati saqlanib qolmoqda (5-rasm).




**5-rasm. Xorazm hududida yirik quyosh loyihasini boshlash marosimi va agrivoltaika elementi e’lon qilingan bosqich [9].**

**5. Loyiha natijalari validatsiyasi: nimalar tasdiqlangan, nimalar hali kutilmoqda? (tahrirlangan)**

Agrivoltaik tizimlar boʻyicha eng muhim metodologik masalalardan biri – "loyiha amalga oshirildi" va "loyiha kutilgan natijalarga erishdi" degan ikki bayonotni oʻzaro aniq ajratishdan iborat. Ochiq manbalar tahlili shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistondagi aksariyat loyihalarda birinchi holat boʻyicha faktlar mavjud boʻlsa-da, ikkinchi holat boʻyicha empirik dalillar nisbatan cheklangan.

Shu sababli 3-jadvalda loyihalarning tasdiqlangan natijalari, kutilayotgan natijalari hamda hali ochiq e'lon qilinmagan muhim koʻrsatkichlari alohida tasniflandi (3-jadval).

3-jadval

Loyiha natijalarining tasdiqlanish darajasi boʻyicha qiyosiy baho

| Loyiha | Tasdiqlangan faktlar | Kutilayotgan natijalar | Ochiq e'lon qilinmagan muhim koʻrsatkichlar | **Ilmiy hukm** |
|---|---|---|---|---|
| **Guliston 50 kW [12]** | 50 kW tizim ishga tushirilgan; shaffof bifacial panellar; ~70 % soyalanish; lokal konstruksiya mavjud | Bugʻlanishni kamaytirish, salqin mikroiqlim, yer resurslaridan ikki tomonlama foydalanish | Yillik kWh, suv tejalishi (%), hosildorlik indeksi, tuproq namligi, iqtisodiy samaradorlik | Texnik demonstratsiya muvaffaqiyatli; agronomik validatsiya boʻyicha qoʻshimcha dalillar zarur |
| **Kuksaroy 507,78 kW [13]** | Quvvat, maydon, panel zichligi va jamoatchilik eshituvi boʻyicha faktlar mavjud | Suvni tejash, hosildorlikni oshirish, tuproq unumdorligini saqlash, qoʻshimcha daromad hamda 25 ta ish oʻrni yaratish | Ishga tushirilgandan keyingi real kWh, suv sarfi, hosildorlik va agroiqlim koʻrsatkichlari | Kuchli eksperimental platforma; natijalarning bosqichma-bosqich e'lon qilinishi kutilmoqda |
| **Toshkent 800 kW [14]** | 1 ga maydonda 800 kW loyiha ishga tushirilgan; grant asosidagi moliyalashtirish va ilmiy maqsad tasdiqlangan | Sabzavot, poliz va kartoshka boʻyicha ilmiy sinovlar, mintaqaviy namuna platformasi | Birinchi vegetatsiya mavsumi natijalari, energiya va agroekologik koʻrsatkichlar | Institutsional jihatdan yuqori salohiyatga ega ilmiy platforma |
| **Xorazm/ Sarimay [9; 10]** | Yirik quyosh elektr stansiyasi, birinchi MWh, 240–254 mln kWh/yil, $CO_2$ emissiyasining kamayishi va gaz tejalishi boʻyicha energiya koʻrsatkichlari mavjud | Panellar ostida ekin yetishtirish tajribasi va mikroiqlimga ijobiy ta'sir | Agrivoltaika komponenti boʻyicha ekin turlariga xos natijalar, suv rejimi va hosildorlik koʻrsatkichlari | Energetik natijalar yuqori darajada tasdiqlangan; agrivoltaika komponenti boʻyicha qoʻshimcha monitoring natijalari zarur |

Ochiq ma'lumotlar matritsasi (3-rasm) ham ushbu xulosani tasdiqlaydi: quvvat, maydon va loyiha statusi boʻyicha ma'lumotlar nisbatan ochiq boʻlsa-da, suv tejalishi, hosildorlik hamda energetik–agronomik integral koʻrsatkichlar boʻyicha ma'lumotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan yoki e'lon qilinmagan (6-rasm).




**6-rasm. Loyiha boʻyicha ochiq ma'lumotlar toʻliqligi: qaysi koʻrsatkichlar e'lon qilingan? [9–14] asosida muallif tomonidan dalillarni baholash usulida tuzildi.**

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonlik olimlar tomonidan olingan nazariy va modellashtirish natijalari agrivoltaika bo'yicha kutilayotgan foydalarning mantiqan asosli ekanini ko'rsatadi. Xususan, tuproq haroratining pasayishi, evapotranspiratsiyaning kamayishi va tuproq namligining ortishi haqidagi natijalar [18] agrivoltaika uchun ijobiy ekologik signal sifatida baholanadi.

Biroq ilmiy halollik nuqtai nazaridan mazkur natijalarni har bir pilot loyiha uchun tayyor natija sifatida emas, balki amaliy loyihalarda tasdiqlanishi zarur bo'lgan ilmiy gipoteza sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

**6. Me'yoriy-huquqiy tahlil va standartlashtirish ehtiyoji (tahrirlangan)**

O'zbekistonda agrivoltaikani tartibga soluvchi alohida maxsus qonun yoki kompleks milliy standartlar paketi hozircha shakllanmagan. Biroq soha uchun umumiy huquqiy poydevor mavjud. Jumladan, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonun [1] hamda 2024-yilda unga kiritilgan o'zgartishlar [2] qayta tiklanuvchi energiya obyektlarini rivojlantirish, investitsion rag'batlarni kuchaytirish va texnik tartibga solish mexanizmlarini belgilaydi. PF–60[1] va PF–158-sonli farmonlar[2] qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish bo'yicha strategik maqsadlarni mustahkamlaydi [3; 4]. PQ–436-son[3] qaror esa "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida xalqaro standartlar asosida yangi qoidalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi [5].

Agrivoltaika uchun quyidagi normativ bo'shliqlar mavjudligi kuzatiladi:

i) yer resurslarining ikki funksiyali foydalanish maqomi bo'yicha aniq kadastr va soliq mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi;

ii) panellar ostida ekin yetishtiriladigan tizimlar uchun minimal balandlik, qator oralig'i, yoritilish va texnik xavfsizlik mezonlarining belgilanmaganligi;

iii) fotosintetik faol radiatsiya (PAR), tuproq namligi, hosildorlik va suv sarfi bo'yicha standart dala monitoring protokolining mavjud emasligi;

iv) elektr tarmog'iga ulanish, avtonom rejim, nasoslar bilan integratsiya hamda qishloq xo'jaligi texnikasi harakati uchun loyiha normalarining yagona tizimga keltirilmaganligi;

v) agrivoltaika loyihalarining iqlim, suv va bioxilma-xillikka ta'sirini kompleks baholash metodikasining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi.

Shu sababli agrivoltaika uchun umumiy qayta tiklanuvchi energiya me'yorlari yetarli hisoblanmaydi. Mazkur soha elektr injiniringi, agrotexnologiya, irrigatsiya, yer kadastri, mehnat xavfsizligi va ekologik ekspertiza kesishgan nuqtada joylashgan. Demak, kelgusida agro-FV obyektlari uchun alohida texnik reglament, tajriba dalalari uchun monitoring standarti hamda loyiha pasportining yagona shaklini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

**7. Muhokama va taklif etilayotgan monitoring tizimi (tahrirlangan)**

Agrivoltaika samaradorligini faqat elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan baholash metodologik jihatdan to'liq yondashuvni aks ettirmaydi. Mazkur tizimning mohiyati ikki asosiy natijani uyg'unlashtirishdan iborat: bir tomondan energiya ishlab chiqarish, ikkinchi tomondan esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish yoki suv tejamkorlik effektiga erishish.

Shu sababli O'zbekiston sharoitida quyidagi to'rt blokli monitoring tizimini joriy etish taklif etiladi (4-jadval).

4-jadval

Agrivoltaika monitoringi uchun taklif etilayotgan minimal indikatorlar tizimi

| Blok | Asosiy ko'rsatkich | O'lchov birligi | Izoh |
|---|---|---|---|
| **Energetik** | Yillik ishlab chiqarish, PR, o'zini o'zi iste'mol qilish ulushi | kWh/yil; % | Fotoelektr (PV) qismi samaradorligini baholaydi |
| **Agronomik** | Hosildorlik indeksi (APV/nazorat), biomassa, mahsulot sifati | t/ga; % | Panel osti va nazorat uchastkalari bo'yicha majburiy taqqoslashni nazarda tutadi |
| **Suv-iqlimiy** | Sug'orish suvi sarfi, tuproq namligi, havo va tuproq harorati, PAR | $m^3$/ga; %; °C; µmol/$m^2$·s | Agrivoltaikaning mikroiqlim va suv tejamkorlik mexanizmlarini baholaydi |
| **Iqtisodiy-ekologik** | Qo'shimcha daromad, investitsiya qaytish muddati, $CO_2$ kamayishi | yil; so'm/ga; t/yil | Loyiha biznes modeli va ekologik ta'sirini aks ettiradi |

Muallif tomonidan agrivoltaikaning integrallashgan natijasini ifodalash maqsadida soddalashtirilgan baholash ko'rsatkichi taklif etiladi.

$$I_{int} = \mathbf{w_1 \cdot (Y}_{APV} / Y_{ref}) + w_2 \cdot (E_{APV} / E_{ref}) + w_3 \cdot ((W_{ref} - W_{APV}) / W_{ref})$$

bu yerda:

**YAPV** – agrivoltaika tizimi ostidagi hosildorlik;

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son https://lex.uz/docs/-6600413?ONDATE=12.09.2023
3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son https://lex.uz/docs/-6303230

**Yref** – nazorat maydonidagi hosildorlik;

**EAPV** – agrivoltaika tizimi tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi;

**Eref**– qabul qilingan energetik etalon yoki maqsadli ko‘rsatkich;

**Wref** va **WAPV** – mos ravishda nazorat va agrivoltaika uchastkalaridagi suv sarfi.

$\mathbf{w_1}$, $\mathbf{w_2}$ **va** $\mathbf{w_3}$ koeffitsiyentlari hududiy sharoitlar hamda ekin xususiyatlariga qarab tanlanadi.

Mazkur ko‘rsatkich amaliyotda loyiha samaradorligini faqat kWh ko‘rsatkichi orqali emas, balki “yer–suv–energiya–hosil” integrallashgan tizimi doirasida baholash imkonini beradi.

Bunday yondashuv ilmiy maqolalar, grant hisobotlari va investitsion takliflar o‘rtasidagi uzilishni kamaytiradi. Chunki amaliyotda investorlar energiya natijalarini, agronomlar esa hosildorlik ko‘rsatkichlarini alohida taqdim etadi; agrivoltaikaning haqiqiy qiymati esa aynan ushbu natijalarning integratsiyasida namoyon bo‘ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda agrivoltaika 2024–2026-yillarda yakka tashabbuslardan bosqichma-bosqich institutsional rivojlanish bosqichiga o‘tmoqda; davlat darajasida 10 GW agroelektrik salohiyatning qayd etilishi ushbu yo‘nalishning strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Mamlakatdagi asosiy amaliy maydonlar, jumladan Gulistondagi 50 kW pilot tizimi, Kuksaroydagi 507,78 kW namoyish loyihasi, 800 kW ilmiy-tadqiqot platformasi hamda Xorazm/Sarimay integratsiyalashgan modeli turli masshtab va maqsadlarda amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, ular o‘zaro uyg‘un holda milliy agro-FV ekotizimining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Loyihalarning aksariyatida quvvat, maydon va ishga tushirish holati bo‘yicha asosiy faktlar mavjud bo‘lib, bu texnologiyaning amaliy joriy etilishi izchil davom etayotganini ko‘rsatadi; shu bilan birga, suv tejalishi, hosildorlik, tuproq namligi va panel osti mikroiqlimi kabi agronomik hamda ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha sonli natijalarni tizimli ravishda kengaytirish istiqbolli vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mahalliy ilmiy izlanishlar, xususan tuproq harorati, evapotranspiratsiya va suv–energiya integratsiyasiga oid tadqiqotlar agrivoltaikaning O‘zbekiston sharoitidagi ilmiy asoslarini sezilarli darajada mustahkamlamoqda.

Amaldagi qonunchilik bazasi qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, agrivoltaika yo‘nalishi uchun maxsus standartlar, loyiha normalari va monitoring protokollarini ishlab chiqish ushbu sohaning tizimli rivojlanishini yanada jadallashtirishi mumkin. Shu munosabat bilan, kelgusi bosqichda mintaqalar va ekin turlari kesimida standartlashtirilgan tajriba tarmog‘ini shakllantirish, ochiq ma’lumotlar bazasini yaratish, integrallashgan baholash indekslarini joriy etish hamda yer–suv–energiya resurslarini birlashtirgan samarali biznes modellarga asoslangan milliy dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi O‘RQ–539-son Qonuni. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-4346831
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-fevraldagi O‘RQ–906-son Qonuni. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni yanada rivojlantirish munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-6791832
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF–60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF–158-son Farmon, 2023-yil 11-sentabr. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. https://lex.uz/docs/-6600413
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ–436-son qaror, 2022-yil 2-dekabr. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish islohotlari samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar. https://lex.uz/docs/-6303230
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 541-son qaror, 2020-yil 7-sentabr. Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-4984499?ONDATE=01.01.2024%2000
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy axboroti, 2024-yil 29-fevral. Qayta tiklanuvchi energiya va yirik loyihalar bo‘yicha yig‘ilish materiallari.
8. IT Park Uzbekistan, 2024-yil 29-fevral. Qayta tiklanuvchi energiya bo‘yicha yig‘ilish sharhi; 10 GW agroelektrik salohiyat va oltita tuman pilotlari haqidagi ma’lumot.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 2024-yil 29-fevral. Tuproqqal’a tumanida quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlandi.
10. World Bank, 2024-yil 23-dekabr. Khorezm regionida 100 MW quyosh elektr stansiyasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha axborot; loyiha quvvati, ishlab chiqarish va emissiya ko‘rsatkichlari.
11. Voltalia, 2025-yil 11-mart. Toshkent viloyatida 500 kW agrivoltaika pilot loyihasi bo‘yicha kompaniya axboroti.
12. Provitaz MMC, 2025-yil 25-avgust. Gulistonda 50 kW agrivoltaika tizimi ishga tushirilgani bo‘yicha axborot.
13. UzDaily / jamoatchilik eshituvi materiallari, 2025-yil 22-avgust. Kuksaroy hududidagi 507,78 kW agro-fotoelektrik stansiya loyihasi.
14. UzDaily, 2026-yil 23-yanvar. Toshkent tajriba stansiyasida 800 kW agrivoltaika loyihasining ishga tushirilishi.

15. Mehta, K.; Shah, M.J.; Zörner, W. Agri-PV (Agrivoltaics) in Developing Countries: Advancing Sustainable Farming to Address the Water–Energy–Food Nexus. Energies, 2024, 17(17), 4440.
16. Majidov, T.; Ikramov, N.; Bekmirzaev, G.; et al. Application of Renewable Energy in Agriculture of the Republic of Uzbekistan. Water, 2025, 17(21), 3074.
17. Majidov, T.; Bekmirzaev, G.; Ikramov, N.; Kan, E.; Berdiev, M.; Buvabekov, B.; Majidov, F. Use of Mobile Photothermic Installation on Application of Drip Irrigation Technology in Orchards of Mountain and Foothill Areas of Uzbekistan. Water, 2025, 17, 872.
18. Begmatov, Sh.E. Agrovoltaics Technology in Agriculture in Uzbekistan. Science and Innovation / Zenodo record, 2025.
19. Abdurakhmanov, B.; Ochildiev, O.; Majdunova, D. Prediction of the impact of solar power plants on soil and evapotranspiration in the conditions of Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 2025, 623, 03002.
20. Avezova, N.R. Agrofotovoltaikaning muhandislik konfiguratsiyalari va ularni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish: xalqaro tajriba, milliy pilot loyihalar, joriy etish istiqbollari. Muqobil energetika, 2025, 4(21), 135–161.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07
https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal
t.me/yait_2100